XALQ AYTISHUVLARIDA MUSHOARA HODISASINING NAMOYON BO‘LISH SHAKLLARI

Abdurahmonova Mohinur
“University of economics and pedagogy”
NOTM o‘qituvchisi.
abdurahmonova.mohinur@bk.ru

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek folkloridagi yigit-qiz aytishuvlari misolida mushoara hodisasining poetik-dialogik tabiati o‘rganiladi. Aytishuvlarda she’riy javob, mazmuniy davomiylik, obrazlarni qayta talqin qilish, badihago‘ylik, badiiy e’tiroz va hazil-mutoyiba kabi shakllarning namoyon bo‘lishi nazariy qarashlar hamda folklor matnlari asosida tahlil qilinadi. O‘lan, lapar va baytbarak kabi dialogik janrlarning mushoaraviy xususiyatlari aniqlanib, og‘zaki she’riy muloqot bilan yozma adabiyotdagi mushoara an’anasi o‘rtasidagi mushtarak va farqli jihatlar yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *o‘zbek folklori, aytishuv, mushoara, o‘lan, lapar, baytbarak, she’riy muloqot, badihago‘ylik, poetik javob, dialogiklik.*

Аннотация. *В статье исследуется поэтико-диалогическая природа явления мушоара на материале песенных состязаний юношей и девушек в узбекском фольклоре. На основе теоретических положений и фольклорных текстов анализируются такие формы, как стихотворный ответ, смысловое продолжение, переосмысление образов, импровизация, художественное возражение и юмор. Выявляются особенности мушоара в жанрах улан, лапар и байтбарак, а также рассматриваются общие и отличительные черты устного поэтического диалога и традиции мушоара в письменной литературе.*

Ключевые слова: *узбекский фольклор, песенное состязание, мушоара, улан, лапар, байтбарак, поэтический диалог, импровизация, стихотворный ответ, диалогичность.*

Abstract. *This article examines the poetic and dialogic nature of mushoara in Uzbek folklore, focusing on poetic exchanges between young men and women. Drawing on theoretical approaches and folklore texts, it analyzes poetic response, semantic continuation, reinterpretation of imagery, improvisation, artistic opposition, and humor. The mushoara-related features of ulan, lapar, and baytbarak genres are identified, alongside the similarities and differences between oral poetic dialogue and the mushoara tradition in written literature.*

Keywords: *Uzbek folklore, poetic exchange, mushoara, ulan, lapar, baytbarak, poetic dialogue, improvisation, poetic response, dialogism.*

KIRISH. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi she’riy muloqotning turli shakllarini saqlab kelgan boy badiiy tizimdir. Uning tarkibidagi yigit-qiz aytishuvlari ijrochilarning navbatma-navbat she’r aytishi, bir-birining fikriga javob qaytarishi, obraz yoki mazmunni davom ettirishi bilan ajralib turadi. Bunday ijroda she’r bir ijrochining yakka ifodasi bo‘lib qolmay, o‘zaro munosabat jarayonida shakllanadigan dialogik matnga aylanadi. Aytishuvning musobaqaviy, hozirjavoblikka asoslangan tabiati uni mushoara hodisasi bilan qiyosiy o‘rganishga zamin yaratadi. Biroq folklordagi har qanday savol-javob yoki qo‘shiq almashinuvini mushoara deb atash to‘g‘ri emas. Mushoaraviylikni belgilashda javobning avvalgi she’riy fikr bilan mazmunan aloqadorligi, unga badiiy munosabat bildirishi va fikrni yangi yo‘nalishda rivojlantirishi asosiy mezon bo‘lishi lozim. Shu sababli mazkur maqolada mushoara folklor aytishuvlarining poetik-dialogik xususiyatini izohlovchi tahliliy tushuncha sifatida qo‘llanadi.

O‘lan va laparlar yigit-qizlar tarafma-taraf bo‘lib ijro etadigan, ko‘pincha ishqiy-maishiy kechinmalarni ifodalovchi aytishuv janrlaridir. Folklor janrlari tavsifida ularning so‘z musobaqasi, dialogik tuzilma va ijro vaziyati bilan bog‘liqligi qayd etiladi.[1] Laparlar ko‘pincha voqebandlikka moyil bo‘lsa, o‘lanlarda alohida bandlar muayyan kechinma yoki fikrni mustaqil ifodalashi mumkin. [2] Biroq har ikki janrda ham she’riy javobning mavjudligi ijrochilararo munosabatni yuzaga chiqaradi.

Mushoaraviylikning folklordagi ko‘rinishlarini tahlil qilish uchun quyidagi belgilarga tayanish mumkin:

1) she’riy replikalar o‘rtasidagi mazmuniy aloqa;
2) avvalgi fikrga javob, e’tiroz yoki davom berish;
3) obrazlarning qayta ishlanishi;
4) poetik vaziyatning rivojlanishi;
5) ijrochining badihago‘yligi va hozirjavobligi.

Ushbu belgilar mushoaraviy dialogni oddiy navbatma-navbat ijrodan farqlashga yordam beradi. Aytishuvlarning og‘zaki ijro muhiti muhim: she’rning mazmuni, ohangi va javob shakli ijrochilarning mahorati hamda vaziyatga qarab o‘zgarishi mumkin. Shu bois mushoaraviylik nafaqat matnning kompozitsion tuzilishida, balki ijro jarayonida ham namoyon bo‘ladi.

Baytbarak aytishuviga doir quyidagi namunada mushoara fonemenining xususiyatlarini kuzatishimiz mumkin:

Yigit: Sen tog‘ chumchuqi bo‘lib,

Soylarga qarab uchsang,
Men tog‘ kaptari bo‘lib,
Orqangdan quvib borsam,
Yor, unda na qilg‘aysan?

Qiz: Sen tog‘ kaptari bo‘lib,
Orqamdan uchib borsang,
Men uchar lochin bo‘lib,
Changalga olib qolsam,
Yor, unda na qilg‘aysan? [3]

Parchada yigit o‘zini “tog‘ kaptari”, qizni “tog‘ chumchuqi” obrazida tasavvur qilib, ta’qib va yaqinlashuv vaziyatini yaratadi. Qiz esa yigitning she’riy da’vosini aynan takrorlamaydi: “tog‘ kaptari” obrazini qabul qilib, o‘zini “uchar lochin” sifatida qayta belgilaydi. Natijada dastlabki vaziyat teskari yo‘nalishda rivojlanadi. Chumchuq-kaptar-lochin obrazlari qushlar olamiga oid tasavvurlarni ishqiy munosabat va kuchlar muvozanatini ifodalovchi poetik vositaga aylantiradi.

Mushoaraviylik bu misolda savolning qaytarilishidangina iborat emas. Qizning javobi yigit yaratgan obrazli vaziyatni davom ettirib, unga yangi badiiy yechim beradi. “Yor, unda na qilg‘aysan?” misrasining takroriy qo‘llanishi ikki replikani kompozitsion jihatdan bog‘laydi; “changalga olib qolsam” ifodasi esa dastlabki ta’qib tasvirini qarama-qarshi natijaga olib keladi. Demak, mazkur aytishuv obrazni qayta talqin etish, mazmuniy javob va poetik vaziyatni o‘zgartirishga asoslangan mushoaraviy shaklni namoyon etadi.

Shuningdek, lapar ijrochiligiga oid manbalarda yigit va qiz o‘rtasidagi ishqiy muloqot hamda she’riy sinov ko‘rinishlari qayd etiladi.[4]

Yigit: O‘lan, yor-yor, aytishuvlar xalqning,
Qishlog‘imiz keksalari o‘lan koni.
Bir oz katta olib aytsam sizga, do‘stlar,
Shu qoraqosh, mayiz nusxa mani jonim.

Qiz: O, xo aka, man mayizga o‘xshadimmi,
Sizga aytay o‘ylab qo‘ygan bir shartimni.
O‘lan aytib siz olsangiz gar ko‘nglimni,
Shuning bilan forig‘ aylang siz dardimni.

Yigitning “qoraqosh”, “mayiz nusxa” kabi xalqona ta’riflari ma’shuqaning tashqi ko‘rinishini maqtashga qaratilgan. Qizning javobi esa maqtovni passiv qabul qilmay, “bir shartimni” va “o‘lan aytib siz olsangiz gar ko‘nglimni” misralari orqali she’riy mahorat sinovini yuzaga keltiradi. Shu tariqa ishqiy izhor dialogning yangi

bosqichiga — shart qo‘yish va ijodiy sinashishga o‘tadi. Bu namunada mushoaraviylikning ishqiy-lirik hamda badiiy munosabat bildirish shakli kuzatiladi. Qiz yigitning so‘zini javob bilan rivojlantirib, aytishuvning g‘oyaviy yo‘nalishini maqtovdan poetik bellashuvga buradi. Javob she’riy muloqotning mustaqil mazmuniy bo‘g‘ini bo‘lib, umumiy kompozitsiyani davom ettiradi.

Yigit-qizlar she’riy muloqotining yana bir yaqin ko‘rinishi baytbarakdir. Jizzax hududidan yozib olingan baytbarak matnlarida qiz va yigitning replikalari ketma-ketligi voqeani bosqichma-bosqich rivojlantiradi. Masalan, qiz o‘zini “Katta bog‘ning qizil guli” deb ta’riflagach, yigit uning “o‘ramoli”ga murojaat qilib, sovchi yuborish niyatini so‘raydi; qiz esa javobida yigit yuborgan sovchini boshqa kishiga bermaslik shartini ifodalaydi.[5] Bu turdagi matnlarda she’riy replika nafaqat avvalgi fikrga javob beradi, balki keyingi voqeani ham tayyorlaydi. Shu jihatdan baytbarakning mushoaraviy xususiyati mazmuniy davomiylik va dialog orqali voqebandlik hosil qilishda ko‘rinadi. Qiz va yigitning she’riy nutqi o‘zaro bog‘langan holda munosabatning yangi bosqichlarini ochadi. Aytishuvning musobaqaviy muhiti ijrochidan tezkor va topqir javobni talab qiladi. Bunday vaziyatda hazil, kinoya, mubolag‘a va qochirimlar she’riy javobning ta’sirchanligini kuchaytiradi. O‘lan ijrochilari o‘rtasidagi bellashuvda chechanlik, javob topish va raqibning she’riy da’vosiga munosabat bildirish ijro mahoratining mezoni bo‘lib xizmat qilgan.[6] Hazil-mutoyibaga asoslangan replika ko‘pincha dastlabki fikrni inkor etishdan ko‘ra, uni boshqa ma’noda talqin qiladi. Bunda javobning poetik samarasi yashirin ma’no va vaziyatga mos so‘z 3 tanlash orqali yuzaga keladi. Mushoaraviylikning ushbu shakli aytishuvni oddiy ishqiy qo‘shiqdan badiiy munozara va so‘z musobaqasi darajasiga olib chiqadi.

Tahlil qilingan namunalar o‘zbek folklor aytishuvlarida mushoaraviylik she’riy javob, mazmuniy davomiylik, obrazlarni qayta talqin qilish, ishqiy izhorni sinovga aylantirish, badihago‘ylik va badiiy e’tiroz orqali namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Tog‘ chumchuqi, tog‘ kaptari va uchar lochin obrazlariga asoslangan aytishuvda javob dastlabki poetik vaziyatni teskari yo‘nalishda rivojlantiradi; ishqiy lapar namunasida esa qizning javobi maqtovni shartli she’riy bellashuvga aylantiradi. Baytbarakda dialog voqebandlikni yuzaga chiqaradi. Demak, folklor aytishuvlaridagi mushoaraviylikni aniqlashda janr nomining o‘zi emas, balki matn ichidagi poetik munosabat — javobning avvalgi fikrga bog‘lanishi, uni rivojlantirishi yoki qayta talqin etishi — asosiy mezon bo‘lishi kerak. Ushbu yondashuv xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyotdagi mushoara an’anasi o‘rtasidagi aloqalarni yanada aniqroq tadqiq etishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qosimov N. Folklor musiqa ijrochiligi: oliy ta’lim muassasalari uchun o‘quv qo‘llanma. — Toshkent : Talqin, 2008. — 192 b.
2. Qosimov N. O‘zbek xalq laparlari (janr spetsifikasi va badiiyati). — Toshkent : Navro‘z, 2019. — 148 b.
3. Mirzayev T., Safarov O., O‘rayeva D. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi: o‘quv qo‘llanma. — Toshkent : Aloqachi, 2008. — 560 b.
4. Ismoilova S. O‘zbek marosim qo‘shiqlaridan “O‘lan”ning etnik va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari // Tadqiqot va innovatsiyalar. — 2023. — 1(1). — B. 75–80.
5. Filologiya. Ilmiy axborotlar. — 2018. — 3-son (16). — B. 166.